



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

## Dastlabki ma'lumotlar


Viloyat bo'yicha 2021 - yilning yanvar - sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi

**6004,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar- sentyabr oylariga nisbatan **8.1** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **790.5** mlrd. so'mni (**13.2** % ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5214.1** mlrd. so'mni (**9.1** % ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **3141.6** mlrd. so'mni (**9.5** % ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





## UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6004.6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **8.1 %** ga oshdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **86.8 %** va yirik korxonalar hissasiga **13.2 %** to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Baxmal tumani **21.8 %** ulush bilan **1 311.0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,0 %** ulush bilan **57.7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
2020- yil Yanvar-sentyabr		
2021- yil Yanvar-sentyabr		

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-sentyabr oylari yakuniga ko'ra, **5 214.1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **9.1** % ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86.8** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,8 %), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,5 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (97,9 %), Forish (78,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	6004.6	108.1	790.5	101.9	5214.1	109.1
<b>Jizzax sh.</b>	1301.3	101.0	140.6	42.5	1160.7	121.5
<i>tumanlar:</i>	0,0		0,0		0,0	
<b>Arnasoy</b>	133.2	105.8	1.6	76.0	131.8	106.3
<b>Baxmal</b>	1311.0	119.5	573.8	159.2	737.3	100.2
<b>G'allaorol</b>	540.0	100.9	11.5	137.0	528.5	100.4
<b>Sharof Rashidov</b>	738.8	102.3	1,3	77.0	735.5	102.4
<b>Do'stlik</b>	215.7	124.3	6.6	114.0	209.1	124.7
<b>Zomin</b>	794.6	107.6	31.7	118.9	762.9	107.2
<b>Zarbdor</b>	217.5	126.1	5.1	105.6	212.4	126.7
<b>Zafarobod</b>	95.3	101.4	1,4	30.9	93.8	105.2
<b>Mirzacho'l</b>	158.9	109.9	4.3	398.4	154.6	107.7
<b>Paxtakor</b>	236.9	115.3	7.1	33.7	229.8	124.6
<b>Forish</b>	203.6	100.5	4,6	93.0	199.0	100.7
<b>Yangiobod</b>	57.7	101.2	1,1	85.1	56.6	101.5

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **1.9 %** ga oshdi va **790,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13.2 %** ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 214.14** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **9.1 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **86.8 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8%), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,5 %), Yangiobod (98,1 %), G'allaorol (97,9 %), Forish (97,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13.2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (10.8 %), Paxtakor (3,0 %), Baxmal (43,8 %), Zomin (4,0 %) va Do'stlik (3,1 %) tumanlarida kuzatildi.



## JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yil yanvar-sentyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 220,6** ming so'm (2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **5,8** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**7 142,3** ming so'm), Baxmal (**8 153,3** ming so'm), Zomin (**4 715,6** ming so'm) va Sharof Rashidov (**3 231,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	4220,6	105,8
Jizzax sh.	7142,3	99,0
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	2847,2	104,3
Baxmal	8153,3	116,9
G'allaorol	3059,6	98,8
Sharof Rashidov	3231,9	99,6
Do'stlik	3219,5	122,1
Zomin	4715,6	105,3
Zarbdor	2444,1	122,8
Zafarobod	1872,2	99,8
Mirzacho'l	3003,8	108,0
Paxtakor	3104,4	113,0
Forish	2156,6	99,0
Yangiobod	2003,1	99,4

**Asosiy tarkib, foizda**




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **837,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **35,1** % ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **322,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,7** % ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **679,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **27,0%** ga oshdi) .


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**





## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



5,7 mlrd.  
so'm

Tuzlamalar



125,1  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



9,3  
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

47,6  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



13,6  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

22,8  
mlrd. so'm



Tuxum

36,5  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

28,8  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

2,5  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2021- yilning yanvar-sentyabr oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **322,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**125,1** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

8,2  
mlrd. so'm



Ziravorlar

22,6  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **576,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **399,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **163,0** mlrd. so'mni, otlar **10,7** mlrd. so'mni, parrandalar **2,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **96,6** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,7 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	96596,1	104,7	96596,1	104,7
Jizzax sh.	47356,8	105,0	47356,8	105,0
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	657,0	98,5	657,0	98,5
Baxmal	1859,1	105,4	1859,1	105,4
G‘allaorol	5911,6	104,2	5911,6	104,2
Sh. Rashidov	17184,1	105,1	17184,1	105,1
Do‘stlik	3254,7	103,2	3254,7	103,2
Zomin	6737,8	105,8	6737,8	105,8
Zarbdor	2959,5	103,4	2959,5	103,4
Zafarobod	842,2	100,2	842,2	100,2
Mirzacho‘l	3749,5	104,2	3749,5	104,2
Paxtakor	3111,2	103,4	3111,2	103,4
Forish	2394,1	102,6	2394,1	102,6
Yangiobod	578,4	101,7	578,4	101,7

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 674,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **6,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **418,4** mlrd. so'mni (**22,7 %** ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 255,8** mlrd. so'mni (**1,4 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



## Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Jizzax shahar (**123,7, %**), Baxmal (**187,7%**) va Do'stlik (**747,0 %**) tumanlarida kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1674,2	106,0	418,4	122,7	1255,8	101,4
Jizzax sh.	914,4	105,6	208,5	123,7	705,9	101,3
tumanlar:			0,0		0,0	
Arnasoy	2,9	24,0	0,1	0,8	2,8	99,1
Baxmal	147,2	161,2	118,5	187,7	28,7	101,7
G'allaorol	43,5	106,4	0,3	30,9	43,2	108,0
Sh. Rashidov	98,2	89,1	0,1	0,6	98,1	99,5
Do'stlik	164,4	207,2	89,8	742,0	74,6	110,9
Zomin	162,3	97,4	0,0	0,7	162,2	100,3
Zarbdor	20,6	44,9	0,0	0,1	20,6	98,9
Zafarobod	4,0	20,9	0,1	0,8	3,9	98,0
Mirzacho'l	11,0	44,0	0,2	1,5	10,8	97,0
Paxtakor	15,2	49,4	0,3	2,0	14,9	100,3
Forish	82,7	97,8	0,4	124,1	82,3	97,7
Yangiobod	7,7	95,0	0,1	28,9	7,7	97,1

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-sentyabr oylari yakuniga ko'ra, **1 255,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **1,4** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **75,0** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9** %), Yangiobod (**99,1** %), G'allaorol (**99,4** %), Forish (**99,5** %), Sharof Rashidov (**99,9** %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Baxmal (**19,5** %), Do'stlik (**45,4**%) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26